

## Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlashda jamoatchilik nazorati o'rni

**Xasanboyev Shaxbozbek Toshkent davlat yuridik universiteti**  
**“Davlat boshqaruvi huquqi” yo‘nalishi magistri**  
**[shaxbozxasanboyev09@gmail.com](mailto:shaxbozxasanboyev09@gmail.com)**

Qonun ustuvorligi - davlatning barcha bo'g'indagi boshqaruv, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi organlari va sud hokimiyati organlari faoliyatida qonun oliy yuridik kuchga ega bo'lib, ularning barcha chiqarayotgan nizom, reglament, qaror, buyruq, yo'riqnomalardan ustun turishi tushuniladi.

Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash – huquqiy davlatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Jamiyatda fuqarolar va mansabdor shaxslar huquqiy bilimlarga ega bo'lishi va mavjud bilimlarni amaliyotda qo'llay olishi, barcha chiqarilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar konstitutsiya va qonunlarga mos bo'lishi konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash va huquqiy davlat davlat belgilarini hisoblanadi.

Qonun ustuvorligi – huquqni qo'llovchi organlar va mansabdor shaxslar tomonidan qonun normalarini aniq va bir xilda tushunilishi va qo'llanilishidir. Tarixdan ma'lumki, xalq manfaatlarini, Yuksak g'oyalar yo'lida sudyalari va ma'muriyat rahbarlari aynan maqsadga muvofiqlikka amal qilishgan. Shuningdek, qonun ustuvorligi va qonuniylik tantanasi uchun odamlar, hatto, jonlarini fido qilishgacha borishgan. Qonunga amal qilish zarurligi haqidagi mulohazalar mumtoz fikrga aylangan Rim huquqshunoslari “Dura Lex, sed Lex<sup>1</sup>,” (Qonun qattiqqo'l, lekin bu qonun), deyishgan.

Konstitutsiya va qonun ustuvorligini qaror toptirishga qaratilgan jarayonda davlat va jamoat tashkilotlarining o'z o'rni mavjuddir. Ya'ni huquqni qo'llash hamda davlat organlari o'zlari chiqarayotgan normativ huquqiy-hujjatlarda konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash prinsipiga qay darajada amal qilinayotganligini nafaqat davlat organlari, balki jamoat tashkilotlari tomonidan ham baholab boorish va mazkur vaziyatga diqqatini qaratilishi kerak bo'lgan jihatlarini aniqlab olishda, o'ziga xos nazorat mexanizmlarini vujudga kelishiga xizmat qilishida namoyon bo'ladi. O'zbekiston

---

<sup>1</sup> <https://lex.uz/lexuz>

Respublikasi Konstitutsiyasining 70-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar, yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar hamda fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari sifatida e’tirof etiladi”<sup>2</sup> deb belgilangan.

“Jamoat tashkilotlarining turli xil ko‘rinishlari:siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, ayollar, yoshlar, veteranlar tashkilotlari, ilmiy-texnik, madaniy-ma’rifiy, jismoniy sport va boshqa ixtiyoriy tarzda tuziladigan jamiyatlar o‘zlarining murakkab yoki nisbatan oddiyroq xususiyatga ega ega bo‘lgan icki tuzulishiga, saylab qo‘yiladigan organlariga ega bo‘ladilar”<sup>3</sup>. Jamoat tashkilotlarining qonun ustuvorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev : “Konstitutsiya va qonun ustuvorligiga erishishda jamoatchilik nazoratidan ko‘ra samarali vosita yo‘q. Buyuk yunon olimi Aflotun shunday degan edi: Xalq qonunlarga ehtiyoj sezib, ularni puxta o‘rgansa, bu faqat uning o‘ziga foyda keltiradi. Aks holda qonundan ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi”<sup>4</sup>.

Jamoat tashkilotlarining davlat va jamiyat ijtimoiy hayotidagi ishtiroki haqida nodavlat va jamoat tashkilotlarining rivojlangan tizimi yaratilishi, fuqarolar manfaatlarini uyg'unligini qaror toptirishga va mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu tizim davlat organlari faoliyatining to'ldirishiga, ularga nisbatan ma'lum bir muvozanatni ta'minlash vazifani bajaradi.

Jamoatchilik nazoratining obyektlari qatoriga davlat organlari va uning mansabdor shaxslari qabul qilinayotgan hujjatlarga, qarorlarda jamoatchilik fikrini hisobga olish belgilangan. Normativ-huquqiy hujjatlarning jamoatchilik muhokamasiga qo‘yish maqsadida regulation.gov.uz portali tashkil etilgan bo‘lib, joylashtiriladigan normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalarini jamoatchilik tomonidan muhokama qilish natijalari

<sup>2</sup> Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi // O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // <https://lex.uz/uz/docs/-6445145#-6445150>

<sup>3</sup> Nazarov Sh.N “O‘zbekistonda jamiyatni shakllantirishda jamoat tashkilotlarining roli” // Yuridik fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya // Toshkent-2009

<sup>4</sup> Sh.M.Mirziyoyev “Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir”

Adliya vazirligiga va Vazirlar Mahkamasiga kiritilishida, qoida tariqasida, kelib tushgan takliflarni ko‘rib chiqish natijalari ko‘rsatilishi majburiydir.

Adolatli jamiyat barpo etish mamlakatda qonun ustuvorligini ta‘minlashda ko‘plab davlat organlarining mas‘uliyatli vazifasi hisoblanadi biroq faqatgina vakolatli davlat organlari faoliyati bilangina mamlakatda qonun ustuvorligini ta‘minlab bo‘lmaydi. Ushbu konstitutsion prinsplarni amalga oshirish uchun faol jamoatchilik nazorati muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Jamoatchilik nazoratini kim o‘tkazadi degan haqli savol tug‘ilishi mumkin. “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasida jamoatchilik nazorati subyektlari keltirilgan bo‘lib unga ko‘ra: “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari (bundan buyon matnda fuqarolar deb yuritiladi), fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazorati subyektlaridir”<sup>5</sup>.

Ya‘ni, har bir fuqaro jamoatchilik nazoratining asosiy prinsplariga qonuniylikka, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligiga rioya qilgan holda ixtiyoriy tarzda jamoatchilik nazoratida ishtirok etishlari mumkin. Jamoatchilik nazoratida ishtirok etish ixtiyoriy hisoblanadi.

Jamoatchilik nazorati sub‘yektlarining davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatiga asossiz aralashuviga va ularga g‘ayriqonuniy ta‘sir ko‘rsatishiga yo‘l qo‘yilmaydi<sup>6</sup>. Jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi qonunni buzganik uchun javobgarlik belgilangan.

Konstitutsiya va qonun ustuvorligi bu Konstitutsiyaning asosiy prinsplaridan bo‘lib, qabul qilingan qonunlar avvalo Konstitutsiyaga mos bo‘lishini hamda barcha vakolatli organlar tomonidan qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya va qonunlarga mos bo‘lishini ta‘minlaydi. Davlat organlari va uning mansabdor shaxslari qabul qilinayotgan hujjatlar ham jamoatchilik nazorati obyektidir. Jamoatchilik qabul qilinayotgan hujjatlarning qonunga muvofiq bo‘lishini ta‘minlashda

<sup>5</sup> Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida” qonuni // <https://lex.uz/ru/docs/-3679092>

<sup>6</sup> Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida” qonuni // <https://lex.uz/ru/docs/-3679092>

muhim omil vazifasini bajaradi. Bu orqali esa qabul qilinayotgan qonunlardan ko'zlangan maqsadga erishiladi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Sh.M.Mirziyoyev "Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir"
3. "Jamoatchilik nazorati to'g'risida" qonun
4. Nazarov Sh.N "O'zbekistonda jamiyatni shakllantirishda jamoat tashkilotlarining roli"
5. E.Xo'jayev, Sh.Asadov "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati" – monografiya